

TOSHLOQ TUMANIDA AHOLI SALOMATLIGINING BA'ZI BIR MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8286251>

Abduvaliyev Xayitboy Abdug'aniyevich

Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

h.a.abduvaliyev@gmail.com;

Solijonova Xurshidabonu Umidjon qizi

Farg'ona davlat universiteti geografiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Hozirgi kunga kelib butun dunyoda bo'lgani kabi, kichik hududlarda ham tabiiy geografik muhitning yomonlashishi, ijtimoiy omillarning ortib borishi natijasida aholi o'rtasida turli kasalliklarning to'xtovsiz yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Mazkur maqolada yuqoridagi masala Farg'ona viloyatining Toshloq tumani misolida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar

iqlimiy omillar, tuproqning ifloslanishi, suvning ifloslanishi, iqlim o'zgarishalari, mahalliy kasalliklar, tibbiyot birlashmalari.

Kirish. Inson tabiatning bir bo'lagi hisoblanadi. U tabiiy geografik muhitda dunyoga keladi, yashaydi va vafot etadi. Inson hayot faoliyati davomida o'zi yashab turgan muhitga (iqlim, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosiga) moslashadi. Bilamizki, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'zaro ta'sirida inson yashaydigan o'ziga xos muhit yuzaga keladi. Lekin ijtimoiy-iqtisodiy omillar ortib borishi bilan, tabiiy muhitning o'zgarishlari insonga salbiy ta'sir eta boshlaydi. Bu albatta shu muhitning tabiiy komponentlariga, ular esa o'z navbatida insonga ta'sir etadi. Bugungi kunga kelib ham Ibn Sinoning iqlim, atmosfera va meteorologik elementlar to'g'risidagi izohlari ham ilmiy nuqtai-nazardan juda to'g'ri bo'lib, hozir ham ahamiyatini yo'qotmagan. O'lim, havoning tarkibi murakkab, u haqiqiy havo (vodorod va kislrod), suv bug'lari, chang, suv va olov bo'lakchalari (uglerod) aralashmasidan iborat, deb aytib o'tgan. Joyning iqlimi shaharlarning geografik kengligiga, joylarning baland-pastligiga, tog` va dengizlarga yaqinligiga, shamollar yo'lida turganligiga va tuproqqa (ya'ni yer yuzasiga) bog'liq, degan dadil fikrlarni bayon etgan. Shuningdek, insonning salomatligi atrof-muhitning holatiga bog'liq bo'lishini ifoda etgan.

Insonlarning salomatligi ko'p jihatdan iqlimga bog'liq. Iqlimning tebranishi insonlar kayfiyatida ham o'z aksini topadi. Insonlarning salomatligida tabiat komponentlarining ahamiyati, avvalo, iqlimiy jarayonlar bilan belgilanadi. Harorat, namlik, bosim, shamollar, yog'in tabiat hodisalari insonlar salomatligida yorqin o'z aksini topgan. Turli xil iqlim sharoiti insonlarning ovqatlanish rejimiga, xarakteriga, kasbga, xo'jalik faoliyatiga ham ta'sir etadi.

Barcha jamiyatda yuzaga kelayotgan muhit bilan birgalikda shu joyning xususiyatiga mos holdagi kasalliklar yuzaga kelmoqda. Tadqiqotchilar har bir kasalliklarning asosiy sababi sifatida iqlimiy omillar bo'lishini bot bot takrorlamodalar.

Aholi sog'ligi bilan bog'liq masalalarni o'rganish, kasalliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, yuqumli kasalliklarni oldini olish, mamlakat aholisining ma'nan va jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlash, Davlatimiz ichki siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan masalalarni hal etishda barcha fanlar qatori geografiya fanining ham ahamiyati beqiyosdir. Kasalliklarni kelib chiqishini asosan, hududiy jihatdan o'rganish, ularning tarqalish maydonlarini aniqlash geografiya fanining muhim va dolzarb masalalari hisoblanadi.

Aholi salomatligini saqlash yuzasidan, mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, aholi yashaydigan hududlarda zamonaviy shifoxonalar, poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlari, xususiy shifoxonalar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Muhokama va natijalar. Yuqoridagi fikrlarni amaliy taxlillar asosida ko'rib chiqamiz. Holatni baholashda Farg'ona viloyati Toshloq tumani tibbiyot birlashmasidan olingan ma'lumotlar asosida taxlil etiladi.

Toshloq tumani tibbiyot birlashmasi 352 o'rinli 1 ta markaziy shifoxona, shundan 34 o'rinli rejali xirurgiya bo'limi, 95 o'rindan iborat tug'ruq majmuasi, 79 o'rindan iborat bolalar bo'limi, 25 o'rindan iborat yuqumli kasalliklar bo'limi, 69 o'rinli ichki kasalliklar bo'limi, 45 o'rin joyga ega pullik reabilitatsiya bo'limi, 1 ta KTMP, 7 ta oilaviy poliklinikasi, 4 ta oilaviy shifokorlik punkti orqali tumandagi 214302 nafar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatib kelinmoqda (01.05.2023).

1-jadval

Toshloq tumanida ayrim kasalliklar tufayli vafot etganlar soni (kishi hisobida)

No	Kasalliklar	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	O'rtacha
1.	O'sma	69	66	58	64,3
2.	Asab tizimi	8	16	32	18,7

3.	Qon aylanish tizimi	830	603	715	716,0
4.	Nafas olish tizimi	622	134	53	83,0
5.	Ovqat hazm qilish	35	44	59	46,0
6.	Suyak-mushak tizimi	0	0	1	0,3
7.	Jarohat va zaharlanish	27	49	31	35,7

Jadval Toshloq tumani tibbiyot birlashmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, insonlar orasida qon aylanish tizimi bilan bog'liq kasalliklardan vafot etganlar soni boshqa kasalliklarga nisbatan o'lim darajasi yuqori o'rinni egallaydi. 2020-yildan 2021-yilga qadar mazkur kasallikdan vafot etganlar soni 227 kishiga kamaygan. Biroq, 2022-yilga kelib esa, qon aylanish bilan bog'liq kasalliklar 112 kishiga ko'paygani kuzatilgan. Qon aylanish bilan bog'li kasalliklarning geografik sabablari asosan, magnit bo'roni bilan bog'liq. Magnit bo'roni insonlar salomatligiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Magnit bo'ronlar sodir bo'lgan vaqtda insonlarda qon quyushlashadi, tromblar hosil bo'ladi, inson tanasida gaz almashinuvi buziladi, insult, infarkt xavfi ortadi. Magnit bo'ronlar vaqtida quyosh atmosfera havosiga juda katta miqdorda praton va elektronlarni yuboradi.

2-jadval

Toshloq tumani tibbiyot birlashmasi QOP, QVP va Ko'p tarmoqli Poliklinika tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan aholi soni bo'yicha ma'lumot (kishi hisobida)

No	QVP nomi	01.01.2021	01.01.2022
1	KTMP	63205	65411
2	52-OP	20410	19988
3	53-OP	21660	22418
4	54-OP	18295	18476
5	55-OP	16995	17186
6	56-OP	12245	12552
7	57-OP	16150	16415
8	93-OP	13458	13718
9	Xolmatobod OSHP	6955	6287
10	K.Abduvaliyev OSHP	6105	7187
11	Turvat OSHP	9681	10080
	Jami	205159	202690

Jadval Toshloq tumani tibbiyot birlashmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, aholiga xizmat ko'rsatish borasida 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 2469 kishiga kamaygan. Aholiga xizmat ko'rsatishning kamayganligi esa, nisbatan aholining ayrim QOP, QVP va Ko'p tarmoqli poliklinikalarga murojaat etishi kamayganligi bilan izohlanadi. Bu eholat kasalliklarning kamayganligini anglatmaydi.

3-jadval

Toshloq tumanining o'lim hisobotlari

No	Muassasa nomi	01.01.2021	01.01.2022
1	QTMP	300	283
2	52-OP	155	94
3	53-OP	126	115
4	54-OP	102	116
5	55-OP	69	103
6	56-OP	58	70
7	57-OP	82	87
8	93-OP	39	86
9	Xolmatobod QVP	15	37
10	K.Abduvaliyev QVP	18	21
11	Turvat QVP	55	43
	QOP jami	749	954
	QVP jami	88	101
	Tuman jami	1019	1055

Jadval Toshloq tumani tibbiyot birlashmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2021-yildan 2022-yilga nisbatan o'lim holatlari soni 36 kishiga ko'paygani kuzatilgan. Turli xil yuqumli kasallik bilan o'lganlar soni yuqori o'rinni egallaydi. Buning asosiy sababi esa, Toshloq tumanining zichligi hisoblandi. Qishloq oilaviy poliklinikada 2021-yildan 2022-yilga nisbatan o'lganlar soni 205 kishiga qisqargan. Qishloq vachlik punktida esa o'lganlar soni 101 kishidan 88 kishiga ya'ni 17 kishiga kamaygan. Qishloq vrachlik punkti - davolash profilaktika muassasasi, ma'lum bir hududga biriktirilgan aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatadi. Qishloq vrachlik punkti (QVP) 1500 va undan ortiq aholi yashaydigan joylarda tashkil etiladi. QVP ning asosiy vazifasi aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatish ,aholi o'rtasida kasallanish,jarohatlanish, o'lim va nogironlikni oldini olish, ratsional ovqatlanish, sog'lom turmush tarzi, emlash ishlari, aholi yashaydigan joylar tashkilot muassasa, korxonalarining tozaligi, ichimlik suvi ta'minotini nazorat qilish, tibbiy ko'rikdan o'tkazish va bir qancha vazifalarni bajaradi. Turvat QVP da o'lganlar soni 12 kishiga qisqargan.

Asosiy sabablardan biri bu 2021-yilda ro'y bergan yuqumli kasalliklar va virusli kasalliklar, ayniqsa Covid-19 pandemiyasidan qolgan asoratlar, insonlarning hayotdan ko'z yumishiga yoki nogiron bo'lib qolishiga sabab bo'ldi. Xuddi shundek vaziyatda aholining salomatligini saqlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muhim masalalardan hisoblanadi. Covid-19 bilan birga ekologik holatni salbiy tomonga o'zgartiruvchi korxonalar faoliyati, ularning atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar ortib borganligini kuzatishimiz mumkin. Asosan, Turvat QVP da 2021-yilda nafas olish va qon aylanish sistemasidagi kasalliklardan ko'p aholi aziyat chekib vafot etgan. Nafas olish kasalliklari bilamizki, pandemiya paytida ko'plab insonlarni hayotdan erta ko'z yumishiga sabab bo'ldi. Jumladan, Covid-19 bilan og'rikan bemorda bir qancha asoratlar qolib, turli xil kasalliklarni keltirib chiqardi. Hansirash va havo yetishmasligi, surunkali yo'tal, o'pka, yurak yetishmovchiligi paydo bo'ldi. Miyaning kislorodga to'yinmasligi esa ruhiy holat va ongni o'zgarishiga olib keldi. Qandli diabet bemorlarni iminitet tizimining buzilganli sababli infeksiyani yuqtirishga moyilroq bo'ladi. Epidemik kasalliklarni potogenezi iqlimiy sharoitlarni o'zgarishi (masalan, gripp epidemiyasi) yoki ifloslanishi bilan bog'liq bo'lib ko'proq tabiiy genezisga ega. Muayyan tabiiy muhitni o'zgarishi bilan epidemiyalar kamayishi mumkin.

Xulosa. Toshloq tumanini tabiiy geografik jihatdan rayonlantirish muhim deb hisoblayman. Tabiiy geografik rayonlashtirishda aholi uchun xavfli kasalliklar, yuqumli kasalliklar, muayyan ekologik muhit bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni hisobga olish hamda aholi orasida ma'lum bir kasallanishlardan o'lim holatini aniqlash alohida o'rin egallaydi. Tabiiy geografik jihatdan rayonlashtirish keng tarqalgan endokrin, yurak-qon tomir, o'sma, yuqumli kasalliklar tarkibiga kiruvchi sil kasalligini tarqalishini oldini olishga yordam beradi. Toshloq tumanida suvning ifloslanishi bilan bog'liq kasallanishlar ham uchraydi. Suvning ifloslanishi natijasida oshqozon-ichak kasalliklari, gepatit, o'tkir ichak kasalliklari ichimlik suvining sifati bilan bog'liq. Korxonalar va zavodlar katta miqdordagi suvni iste'mol qiladi. Ifloslantiruvchi moddalarni suv yo'llariga tashlashga olib keladi. Toshloq tumanida qishloq xo'jaligi sohasida zararkunandalarga qarshi vositalar va turli xil o'g'itlar tuproq va suv qatlamini ifloslanishiga olib keladi. Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanishni tartibga solish, ifloslangan suvlarni tozalash ishlarini yo'lga qo'yish, ekologik toza mahsulotlar yetishtirish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduvaliyev, H., & Eraliyeva, Z. (2022). YANGI USLUBIY YONDOSHUV ASOSIDA AHOLI ZICHLIGINI HISOBLASH ZARURATI. *Science and innovation*, 1(C8), 118-123.
2. Abdug'aniyevich, A. X. (2023). TOSHLOQ TUMANI AHOLISI JOYLANISHINING AYRIM MASALALARI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(6), 173-176.
3. Abdug'aniyevich, A. H., & Abdumalik o'g'li, A. A. (2022). HUDUDNING TABIIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI AHOLI JOYLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 576-581.
4. Abdug'aniyevich, A. X. (2023). FARG 'ONA VILOYATI NORASMIY MEHNAT BOZORLARI SHAKLLANISHINING GEOGRAFIK OMILLARI. *World of Science*, 6(4), 574-580.
5. Abduvaliyev, H., & Eraliyeva, Z. (2022). AHOLINING SUG 'ORILADIGAN YERLAR BILAN TA'MINLANGANLIGI BAHOLASH. *Science and innovation*, 1(C8), 124-129.
6. Abduganiyevich, A. H., & Xasanovna, J. M. (2021). THEORETICAL BASIS OF STUDYING THE TERRITORIAL STRUCTURE OF THE POPULATION ON NATURAL LANDSCAPE OBJECTS. *Thematics Journal of Geography*, 6(1).
7. Ахмадалиев, Ю. И., Абдувалиев, Х. А., & Алимджанов, Н. Н. (2019). ABOUT THE ETHOGEOGRAPHIC ROOTS OF PROBLEMS OF THE CONSUMING WATER AND GROUND RESOURCE. In *Геоэкологические проблемы бассейна Аральского моря: научные идеи, исследования, инновации. Сборник материалов Международной научно-практической конференции* (pp. 107-111).
8. <https://geografiya.uz/dunyoni-urganish/383-abu-ali-ibn-sino.html>